


# Science Conference

[www.science-conference.com](http://www.science-conference.com)

a digital platform dedicated to disseminating a wide array of scientific research articles and papers. It serves as a valuable resource for the scientific community and others interested in cutting-edge scientific knowledge and insights.



**2024**  
**Nº 1 (2)**

## **TABLE OF CONTENTS**

QUANTUM SUPREMACY: EXPLORING THE DISRUPTIVE POTENTIAL OF QUANTUM COMPUTING ON CRYPTOGRAPHY AND LEGAL FRAMEWORKS FOR DATA SECURITY.....	2
Islombok Abdikhakimov.....	2
ЗАЩИТА ГОСУДАРСТВЕННОГО СУВЕРЕНИТЕТА В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ	13
Салаят Конысбаев.....	13
RAQAMLI AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLAR.....	20
Parvina G'ulommamatova.....	20
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISH VA ULARNING AHAMYATI.....	31
Abbosjon Olimov.....	31
RAQAMLI MUALLIFLIK HUQUQI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI, KELIB CHIQISHI, ASOSIY TAMOYILLARI.....	38
Mohinur Bahramova.....	38
Behruz Eshpo'latov.....	38
RAQAMLI BOSHQARUVNING HUQUQIY ASOSLARINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHTLARI.....	45
Jamshid Odilov.....	45
FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA ADVOKATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.....	56
Maftuna O'rolova.....	56
MARKAZLASHTIRILMAGAN AVTONOM TASHKIOTLAR (DAO) VA O'ZGARMAS TOKENLAR (NFTS) KABI RIVOJLANAYOTGAN BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARING XALQARO QONUNCHILIKKA POTENTSIAL TA'SIRI..	67
Nazokat Ismoilova.....	67
ZAMONAVIY HUQUQIY PARADIGMA KONTEKSIDA KIBER SPORT SOHASINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY VA HUQUQIY JIHTLARI.....	74
San'atjon Ergashev.....	74
KIBERXAVFSIZLIK VA INSON HUQUQLARINI HIMoya QILISH MEXANIZMLARI.....	80
Shohruh Rabbimov.....	80
KIBERMAKONNI TARTIBGA SOLISHDA XALQARO HUQUQNING YANGI YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.....	88
Xonzodabegim Raxmatova.....	88

## **RAQAMLI MUALLIFLIK HUQUQI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI, KELIB CHIQISHI, ASOSIY TAMOYILLARI**

**Mohinur Bahramova**

Toshkent davlat yuridik universiteti Kiber huquq kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlari doktori

**Behruz Eshpo‘latov**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

[behruzeshpulatov02@gmail.com](mailto:behruzeshpulatov02@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

Zamonaviy axborot-texnologiyalari taraqqiy etib borishi bilan an'anaviy ilmiy tushunchalar oldidan “raqamli”, “elektron” kabi sifatlashlar ham qo'llanilmoqda. Xuddi shunday atamalardan biri raqamli mualliflik huquqidir. Raqamli mualliflik huquqi intellektual mulk huquqining bir qismi bo'lib, raqamli formatda mavjud bo'lgan mualliflik ishlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy himoya choralarida namoyon bo'ladi. Bu himoya vositalari kitoblar, musiqa va filmlar kabi ommaviy axborot vositalarining an'anaviy shakllariga o'xshaydi, ammo dasturiy ta'minot, elektron kitoblar, raqamli musiqa, onlayn videolar, veb-saytlar va elektron ommaviy axborot vositalarining boshqa shakllari kabi raqamli kontent uchun maxsus qo'llaniladi.

### **KALIT SO‘ZLAR**

Raqamli mualliflik huquqi, mutlaq huquqlar, adolatli foydalanish, Bern Konvensiyasi, DMCA.

Raqamli mualliflik huquqi tushunchasi bo'yicha o'z qarashlarini bildirgan bir qancha chet el huquqshunos olimlarining fikrlarini tahlil qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Michigan huquq maktabi tadqiqotchisi Jessica Litman o'zining "Raqamli mualliflik huquqi: Internetda intellektual mulkni himoya qilish" nomli kitobida ta'kidlashicha, hozirgi mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchilik anchagini eskirgan va raqamli texnologiyalar keltirib chiqaradigan muammolarni hal qilish uchun yetarli emas. Litman qonunlarni raqamli muhitga moslashtirish uchun mualliflik huquqi tamoyillarini qayta ko'rib chiqish tarafdori bo'lib, raqamli kontekstda ijodkorlar va jamoatchilik manfaatlarini muvozanatlashtiradigan qonunlar zarurligini ta'kidlaydi.<sup>[1]</sup> Amerikalik yana bir olim Piter Bolduin o'z asarida raqamli dunyo mualliflik huquqiga oid bahslarni qanday kuchaytirganini va turli mamlakatlar bu qiyinchiliklarga qanday javob berayotganini muhokama qiladi. U global muammolarni samarali hal qilish uchun xalqaro hamkorlik va raqamli mualliflik huquqi qonunlarini uyg'unlashtirish lozimligini e'tirof etadi.<sup>[2]</sup> Rossiyalik intellektual mulk huquqi tadqiqotchisi I.A.Bлизнэс raqamli texnologiyalarning mualliflik huquqi qonunchiligiga ta'sirini o'rganib, raqamli muhitdan kelib chiqadigan muammolarni hal qilish uchun qonunchilik bazasini doimiy ravishda moslashtirib borish zarurligini ta'kidlaydi. U raqamli asrda intellektual mulkni himoya qilishning murakkabliklarini sanab o'tadi va texnologik taraqqiyot bilan hamnafas bo'lish uchun mualliflik huquqi qonunlarini doimiy ravishda o'zgartirib turish bo'yicha o'z takliflarini ilgari suradi.<sup>[3]</sup> Umuman olganda, raqamli mualliflik huquqi an'anaviy mualliflik huquqi tushunchalarini raqamli asrga moslashtirish, ijodkorlarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek, raqamli media va zamonaviy texnologiyalar yuzaga chiqarayotgan turli muammolarni hal qiluvchi huquq sohasidir.

Raqamli dunyoda raqamli mualliflik huquqi konsepsiysi ijodkorlarning huquqlarini himoya qilish va raqamli kontentdan adolatli foydalanishni ta'minlashda ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi. Raqamli mualliflik huquqi musiqa va filmlardan tortib dasturiy ta'minot va elektron ilmiy maqolalargacha bo'lgan turli obyektlarni o'z ichiga olib, raqamli asarlar yaratuvchilariga qonuniy himoyani taqdim etadi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan raqamli mualliflik huquqi asosidagi mexanizmlar va tamoyillar ham o'zgarib bormoqda.

Raqamli mualliflik huquqi raqamli formatlarda yaratiladigan, tarqatiladigan va foydalaniladigan asarlar bo‘lib, u mualliflik huquqiga oid an'anaviy qonunchilikka nisbatan kengroq tushunchadir. U mualliflarga raqamli ijod namunalaridan foydalanish, tarqatish va haq olish uchun mutlaq huquqlarni taqdim etadi. Bu huquqlar raqamli kontentning iqtisodiy qiymatini saqlab qolish, yangi innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish hamda ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek raqamli mualliflik huquqi ijodkorlarning o‘z asarlari ustidan nazoratni saqlab turishini ta’minlaydi va ularga boshqa shaxslar tomonidan foydalanish uchun ruxsatnoma va litsenziyalar berishga imkon beradi. Raqamli mualliflik huquqi elektron kitoblar, musiqa, videolar, dasturiy ta’milot va raqamli san’at asarlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli raqamli ommaviy axborot vositalarini qamrab oladi. Raqamli mualliflik huquqi internetdagи kontentdan foydalanishni tartibga solishda ham muhim rol o‘ynaydi. Natijada ijodkorlar o‘z mehnatlari uchun munosib e’tirof va haq olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu o‘rinda raqamli mualliflik huquqining tarixiga nazar solsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Raqamli mualliflik huquqining kelib chiqishini XXV asrda kitob chop etish dastgohi ixtiro qilingandan so‘ng an'anaviy mualliflik huquqi qonunining rivojlanishi bilan bog‘lash mumkin. Mualliflik huquqi to‘g‘risidagi birinchi asosiy qonun 1710-yilda Buyuk Britaniyada qabul qilingan “Anna Statuti” deb nomlangan nizomdir.<sup>[4]</sup> Ushbu nizom mualliflarga o‘z asarlariga cheklangan muddatga bo‘lsa-da mutlaq huquqlar bergan (o‘scha paytda 28 yil etib belgilangan), shundan so‘ng asarlar jamoat mulkiga aylanishi kerakligi haqidagi norma o‘rnatalgan. Xuddi shunday qonunlar Daniya (1741), AQSH (1790), Fransiya (1793)da ham qabul qilingan. XIX asrda ko‘pgina boshqa mamlakatlar mahalliy mualliflarning asarlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlarni qabul qildilar.

Sanoat davrida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan mualliflar huquqlarini o‘z mamlakatlaridan tashqarida himoya qilish zarurati vujudga keldi. 1852-yilda Fransiya o‘zining mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunlari fuqaroligidan qat‘i nazar barcha mualliflar huquqlarini himoya qilishini e’lon qildi va shu bilan muayyan xalqaro kelishuv uchun harakat

boshladi. 1886-yilda Shveytsariyaning Bern shahrida 10 ta davlat vakillari Bern konvensiyasini (rasmiy nomi Adabiy va badiiy asarlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasi deb ataladi) qabul qilib, Bern ittifoqini tuzdilar. Konvensiyaning asosiy g‘oyasi “milliy rejim” tamoyili edi. Bu har bir ahslashuvchi davlat boshqa ahslashuvchi davlat fuqarolariga o‘z fuqarolariga taqdim etgan mualliflik huquqlarini taqdim etishi zarurligini anglatadi.<sup>[5]</sup> XX asr davomida konvensiyani bir qancha davlatlar ratifikatsiya qildi. Hozirgi kunga kelib konvensiyaga 140 dan ortiq davlat a’zo hisoblanadi.

1990-yillarga kelib Internet paydo bo‘lishi bilan, raqamli mualliflik huquqini himoya qilish zarurati paydo bo‘ldi. 1996-yilgi Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) mualliflik huquqi shartnomasi raqamli muhitdagi asarlarni himoya qilish bo‘yicha yangi ko‘rsatmalarni belgilab berdi va raqamli kontent muammolarini yana bir bor kun tartibiga qo‘ydi.

Ba’zi mamlakatlarning qonun chiqaruvchi organlari va sndlari texnologiya taraqqiyoti bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunlarni raqamli asrga moslashtirishga harakat qilishdi. Aksariyat hollarda ushbu o‘zgartirishlar mualliflarning huquqlarini kuchaytirishga qaratilgan edi. Masalan, 1998-yilda Qo‘shma Shtatlar Raqamli Mingyllik mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunni (DMCA) qabul qildi. Bu esa mualliflarning o‘z asarlarining raqamli shakllari ustidan nazoratini kengaytirdi. Ushbu qonunning mazmuni shundan iborat ediki, foydalanuvchilarning ilgari “adolatli foydalanish” (fair use) deb hisoblangan faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatlari sezilarli darajada qisqartirildi. Bundan tashqari, 2008-yilda AQSh federal apellyatsiya sudi qaroriga ko‘ra foydalanish, tarqatish va o‘zgartirishning muayyan shartlariga rioya qilish evaziga foydalanuvchilar mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallardan foydalanish erkinligini beruvchi bepul litsenziyalarga ega bo‘lishi mumkin. Qonun mualliflik huquqi bilan himoyalangan asardan foydalanish shartlarini belgilaydi. Shartlar buzilgan taqdirda litsenziya bekor bo‘ladi. Natijada, bu mualliflik huquqining buzilishiga olib keladi.<sup>[6]</sup>

Raqamli asrda mualliflik huquqining bir qancha asosiy tamoyillari mavjud. Raqamli mualliflik huquqi tamoyillari an‘anaviy mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunlarga asoslanadi, lekin ular raqamli medianing o‘ziga xos ehtiyojlari va

muammolarini hal qilish uchun moslashtirilgan. Bu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

1. Ijodkorning mutlaq huquqlari. Raqamli kontent yaratuvchilarga bir qator mutlaq huquqlar beriladi. Jumladan, asardan nusxa ko‘chirish huquqi (reproduksiya huquqi), asarning asl nusxasini yoki nusxalarini sotish yo‘li bilan tarqatish huquqi (tarqatish huquqi), asarni barchaning e’tiboriga yetkazish (barchaning e’tiboriga yetkazish huquqi), asarni omma oldida namoyish etish huquqi (omma oldida namoyish etish huquqi), asl nusxa asosida hosila asar yaratish huquqi (hosila asar huquqi). Ushbu mutlaq huquqlar ijodkorlarning o‘z asarlaridan foydalanilishini nazorat qilishlarini va ularning ijodidan moliyaviy foya olishlarini ta’minlaydi.
2. Adolatli foydalanish (Fair use) doktrinasi. Adolatli foydalanish doktrinasi mualliflar huquqlari hamda mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardan foydalanishdagi jamoat manfaatlarini muvozanatlashtiradigan asosiy tamoyillardan biridir. Adolatli foydalanish muallifning ruxsatisiz mualliflik huquqi bilan himoyalangan materialdan tanqid, sharh, yangiliklar, ta’lim, tadqiqot kabi maqsadlarda foydalanishga imkon beradi. Adolatli foydalanish doktrinasi AQSh Mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunining 107-bo‘limiga muvofiq tartibga solinadi.<sup>[7]</sup> Adolatli foydalanishni aniqlash to‘rt omilga asoslanadi:

Birinchidan, foydalanish maqsadi va xarakteri. Agar yangi asar asl nusxaga yangi ifoda yoki ma’no qo‘shsa va to‘g‘ridan to‘g‘ri nusxa bo‘lmasa, u adolatli foydalanish deb hisoblanadi. Parodiylar, sharhlar va tanqidlar shular jumlasidandir. Notijoriy ta’lim maqsadlarida foydalanish ham adolatli foydalanish hisoblanadi.

Ikkinchidan, mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarning tabiatи. Faktik va badiiy: faktik asarlardan foydalanish (masalan, kundalik yangiliklar yoki ilmiy tadqiqotlar) yuqori darajadagi badiiy asarlardan (masalan, romanlar yoki filmlar) foydalanish ham adolatli foydalanish deb e’tirof etiladi.

Uchinchidan, foydalanilgan qismning miqdori va ahamiyati. Oshkor qilingan asarlardan asl nusxada yoki tarjimada muallifning ism-sharifini ko‘rsatgan holda erkin foydalanish uchun iqtibos ko‘zlangan maqsadga mos hajmda

olinishi lozim. Agar olinayotgan iqtibos asar mazmunining “mag‘zi”ni tashkil etsa, bunday iqtibos adolatli foydalanish qoidalariga zid ravishda olingan deb hisoblanadi.

To‘rtinchidan, bozorga ta’siri. Agar mualliflik huquqi bilan himoyalangan materialdan foydalanish bozorda asl nusxaning sotuviga zarar yetkazishi mumkin bo‘lsa, uni adolatli foydalanish deb hisoblab bo‘lmaydi. Ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirishda adolatli foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, asl ijodkorlarning huquqlarini hurmat qilgan holda yangi asarlar yaratilishiga imkon beradi.

Raqamli mualliflik huquqining asosiy tushunchalaridan bir raqamli huquqlarni boshqarish (Digital Rights Management — DRM)dir. Raqamli huquqlarni boshqarish raqamli kontentga kirish va ulardan foydalanishni nazorat qilish uchun foydalilaniladigan texnologiyalar va strategiyalarni anglatadi. DRM tizimlari raqamli asarlarni ruxsatsiz nusxalash, almashish va tarqatishning oldini olishga mo‘ljallangan<sup>[8]</sup> DRM tizimlariga faqat maxsus huquqqa ega bo‘lgan foydalanuvchilar kirishi va foydalanishi mumkin.

DRM raqamli kontentni himoya qilishda muhim rol o‘ynasa-da, u ham olimlar o‘rtasida turli bahslarga sabab bo‘lmoqda. Tanqidchilarning fikricha, DRM kontentdan qonuniy ravishda foydalanishni keskin cheklab qo‘yishi va iste’molchilar huquqlariga putur yetkazishi mumkin. Ushbu bahs-munozaralarga qaramay, DRM raqamli mualliflik huquqini himoya qilishning asosiy vositasi bo‘lib qolmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, texnologiya taraqqiyoti davom etar ekan, raqamli mualliflik huquqi yangi voqeliklarga moslashishi kerak. Shu bilan birga ijodkorlarning huquqlarini jamoatchilik manfaatlari bilan muvozanatlash mumkin. Mualliflik huquqlarining buzilishi, texnologik o‘zgarishlar va global huquqni qo‘llash muammolarini hal qilish kelajakda raqamli mualliflik huquqining yaxlitligi va samaradorligini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

## **ADABIYOTLAR**

[<sup>1</sup>] Jessica Litman. Digital Copyright: Protecting Intellectual Property on the Internet. Michigan Publishing, 2017. 25-p.

<https://quod.lib.umich.edu/m/maize/mpub9798641>

[<sup>2</sup>] Peter Baldwin. The Copyright Wars: Three Centuries of Trans-Atlantic Battle. Princeton university press. 2016. 48  
[https://escholarship.org/content/qt3fk848wz/qt3fk848wz\\_noSplash\\_3c19eb9dc89e79675946515dd1b1e8e4.pdf?t=o06uoou](https://escholarship.org/content/qt3fk848wz/qt3fk848wz_noSplash_3c19eb9dc89e79675946515dd1b1e8e4.pdf?t=o06uoou)

[<sup>3</sup>] Близнец И. А. Авторское право в цифровой среде. Новые вызовы //ББК 67.404. 3 Р 68. – 2019. – С. 35.

<https://rospatent.gov.ru/content/uploadfiles/presentations/conference/theses-23konf-2019.pdf#page=35>

[<sup>4</sup>] [https://en.wikipedia.org/wiki/Statute\\_of\\_Anne](https://en.wikipedia.org/wiki/Statute_of_Anne)

[<sup>5</sup>] William Weston Fisher. Copyright Law. Article History. 2024.

<https://www.britannica.com/topic/copyright>

[<sup>6</sup>] [https://en.wikipedia.org/wiki/Digital\\_Millennium\\_Copyright\\_Act](https://en.wikipedia.org/wiki/Digital_Millennium_Copyright_Act)

[<sup>7</sup>] <https://www.copyright.gov/title17/title17.pdf>

[<sup>8</sup>] <https://www.digitalguardian.com/blog/what-digital-rights-management>